

O'qishni qayta tiklash va ko'chirish maqsadida murojaat qilgan talabalarining arizalari ko'rib chiqildi

29-avgust kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida o'qishni qayta tiklash va ko'chirish maqsadida murojaat qilgan talabalarining arizalari ko'rib chiqildi. Mazkur yig'ilishda institut rahbariyati, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari hamda boshqa mas'ul shaxslardan iborat komissiya a'zolari ishtirok etdi.

Komissiya a'zolari tomonidan har bir talabaning hujjatlari individual ravishda, aniq belgilangan mezonlar asosida ko'rib chiqildi. Bunda ularning oldingi semestrlardagi baholari, intizomiy ko'rsatkichlari va o'qishni qayta tiklash yoki ko'chirish sabablari o'rganildi.

Yig'ilishda har bir talaba institutning ichki tartib-qoidalari va talablariga rioya etgan holda ta'lim olishda davom etishi mumkinligi ta'kidlandi.





O'zbekistondagi rahbariyati va professor-o'qituvchilari Samarqand shahridagi xalqaro konferensiyada ishtirok etmoqda

Xabaringiz bor, 26–30-avgust kunlari Samarqand shahrida “Yer yuzining sayqali” deb nom olgan qadimiy va betakror Samarqandda “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivali bo‘lib o’tmoqda.



Festival doirasida “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivali doirasida o’tkazilayotgan “Sharq xalqlari musiqa madaniyati: globallashuv jarayonlarida ijodiy uyg'unlashuv tamoyillari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o’tkazilmoqda. Konferensiyanı O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, TURKSOY tashkiloti bosh kotibi Sultan Rayev, Jahon madaniyatatlari milliy assotsiatsiyasi rahbari Huaulme Christine, Samarqand shahar hokimi Fazliddin Umarovlar kirish so’zi bilan ochib berib, barcha ishtirokchilarni konferensiya ishi tabriklashdi.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiyada 32 mamlakatdan tashrif buyurgan 46 nafar sohaning eng yetuk mutaxassislari, jumladan musiqashunos, folklorshunos, madaniyatshunos olimlar, nufuzli oliy ta’lim muassasalari rektorlari va xalqaro ilmiy tadqiqot institutlari hamda ilmiy-ijodiy markazlar rahbarlari ishtirok etmoqda.

Shu jumladan, konferensiyada O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev,

ilmiy ishlар va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Baxtiyor Yakubov hamda oliygohning professor-o'qituvchilari O'razali Toshmatov, Ma'rufjon Yo'ldoshev, G'anijon Xudoyev, Musallam Abdujabbarova, Jo'ra Shukurov, Aziz Rajabiy, N.Turg'unova va boshqalar ham qatnashmoqda.





O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Mahalla obod – yurt obod" shiori ostida umumxalq xayriya hashari o'tkazildi

24-avgust kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida «Mahalla obod – yurt obod» shiori ostida keng qamrovli umumxalq xayriya hashari o'tkazildi. Bundan ko'zlangan maqsad institut hududi va atrof-muhitni obodonlashtirish, tozalikni ta'minlash, shuningdek, o'qituvchilar va xodimlarni jamoaviy ishda birlashtirishdan iborat.

Hasharda institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev boshchiligida oliyoh professor-o'qituvchilari va xodimlari faol ishtirok etishdi. Ular hududlarni obodonlashtirish, yo'laklarni tozalash va boshqa turdagи obodonlashtirish ishlarini amalga oshirdi.

Mazkur jarayondan so'ng institut hududida doshqozonda osh damlanib, xayrli ishda faol ishtirok etgan barcha professor-o'qituvchilar va xodimlar uchun mazali taom dasturxonga tortiq etildi.

Ushbu xayriya hashari natijasida institut hududi yanada go'zal ko'rinishga keldi, xodimlar orasida birdamlik kayfiyati kuchayib, do'stona muhit yanada mustahkamlandi. Bu kabi tadbirlar institutda ilm-fan va madaniyat rivojiga xizmat qiladigan ijobiy muhit yaratishga ulkan hissa qo'shadi.





0'z DSMIda ikkinchi
mutaxassislik bo'yicha ta'lim
olish istagida hujjat

topshirgan abituriyentlar uchun suhbat o'tkazilmoqda


0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ikkinchi mutaxassislik bo'yicha ta'lif olish istagida hujjat topshirgan abituriyentlar uchun suhbat bo'lib o'tmoqda.

Institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev mazkur jarayonlarni bevosita kuzatib bormoqda.

Suhbat jarayoni shaffof va adolatli ruhda o'tkazilmoqda hamda jonli efirda onlayn tarzda namoyish etilmoxda. Imtihon natijalari shu kunning o'zida oliygohning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari orgali e'lon qilinadi.

Mazkur jarayon orqali talabgorlarning ilmiy-ijodiy qobiliyati baholanib, munosib nomzodlarga ikkinchi mutaxassislik bo'yicha o'z bilimlarini yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.









O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida «FACE ID» tizimli zamonaviy turniketlar o'rnatildi

Institut rahbariyati, xususan, ishlar boshqarmasi boshlig'i Mirzohid Qurbonov tomonidan yangi 2024/2025-o'quv yiliga tayyorgarlik munosib tayyorgarlik ko'rish, oliyoh moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash hamda zamonaviy texnologiyalar joriy etish borasida bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, institut hududiga kirish va chiqish nazoratini raqamlashtirish maqsadida yuzni tanish funksiyasiga ega «FACE ID» tizimli zamonaviy turniketlar o'rnatildi.

Yangi o'quv yilidan boshlab institut professor-o'qituvchilar, ishchi-xodimlar va talabalarning kunlik davomati mazkur turniketlar orqali raqamlashtirilgan holda olib borilishi

yo'lga qo'yiladi. Institut rahbariyati tomonidan oliygohda raqamlashtirish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda.





Geochang teatr maktabi bilan hamkorlik aloqalari o'rnatildi

16-avgust kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev Koreya Respublikasining Geochang teatr maktabi direktori Kan Man Xo boshchiligidagi muassasa delegatsiyasi bilan uchrashdi. Mehamonlarga institutimizning boy tarixi va faoliyati haqida ma'lumot berib o'tildi.

O'z navbatida, so'nggi yillarda O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasida ta'lim, madaniyat va san'at sohasida hamkorlik aloqalari jadallik bilan rivojlanib borayotganiga alohida urg'u berib o'tildi.

Uchrashuvda tomonlar o'rtasida o'zaro memorandum imzolash hamda professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvini yo'lga qo'yish istiqbollari muhokama qilindi. Bundan tashqari, joriy yilning oktyabr oyida Geochang teatr maktabidan professor-o'qituvchilar va talabalarning O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga tashrif buyurib, qisqa muddatli tajriba almashinuvida ishtirok etishi bilan bog'liq masalalar kelishib olinib, tegishli mas'ullar orgali jarayonni yuqori saviyada o'tkazish belgilandi.

Shu bilan birga, mehmonlar sahma harakati va jismoniy madaniyat kafedrasi hamda o'quv teatri faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

☒





**0'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti
professor-o'qituvchisi**


Yevropada “faxriy akademik” unvoni bilan taqdirlandi

«Abdulla Oripov», “Puankare” kabi qator badiiy filmlar rejissyori, O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining kino, televide niye va radio rejissyorligi kafedrasi o’qituvchisi Muzaffarxon Erkinov Yevropa kino tashkilotlari tomonidan “faxriy akademik” unvoni bilan taqdirlandi.

Shuningdek, rejissyor Bolgariya kino, televide niye va internet akademiyasi bosh mukofoti – GRAN-PRI, “Eng yaxshi rejissyorlik ishi”, «Eng yaxshi operatorlik ishi» va “Eng yaxshi ssenariy” mukofotlariga ham loyiq ko’rilgan.

«Faxriy akademik» unvoni Bolgariya kino, televide niye va internet akademiyasi, Yevropa audiovizual san’at assotsiatsiyasi, Parij Yevropa kino akademiyasi ESRA Skope audiovizual san’at universiteti (Skope – Parij – Nyu-York) tomonidan taqdim etildi.

Bolgariya poytaxti Sofiya shahrida joriy yilning sentyabr oyida bo’lib o’tadigan kino-telefestivalning yopilish marosimida mazkur unvon o’z egasiga topshiriladi.



olishi va erkin ijodiy faoliyat bilan band bo'lishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Shuningdek, institut rektori tomonidan talabalar turar joyining ma'nnaviyat xonasi va kutubxonasining holati ko'zdan kechirilib, talaba-yoshlar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish borasida taklif va tavsiyalar berib o'tildi.

Bundan tashqari, talabalar turar joyidagi har bir xona ta'mirlanib, yangi o'quv yili uchun shay holatga keltirilmoqda.

